



ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ТОШКЕНТ-2024

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Xolbekov Abdug‘ani, Rasulov Hakim HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI.....	9
2. Сеитов Азамат Пулатович ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	18
3. Якубов Ильдар Харрасович, Парманов Фарход Ярашевич КОНЦЕПЦИИ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ПРОСТРАНСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ.....	27
4. Убайдуллаева Раиса ПРАВО, КАК ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	35
5. Abduraxmonova Manzura IJTIMOIY NIHOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI.....	42
6. Madaminov Baxodir JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA...51	
7. Yusupov Rahimjon SOTSILOGIYANI O‘QITISHDA AHOLINI RO‘YXATGA Olish TADBIRLARIDAN FOYDALANISH.....	59
8. Узакова Зарина ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ» И РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	68
9. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH VA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	75
10. Hojiyev Zavqiddin TASHKILOTLARDA XODIMLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
11. Mahammadjanov G‘olibjon FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLAR VA IJTIMOIY ONG TRANSFORMATSII SI: ŐZARO BOGLIQLIK, ZARURAT OMILLARI (SINERGETIK ŐNDAŐUV).....	93
12. Gaibnazarov Baxodir DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV).....	100
13. Mamatqulova Fotimaxon O‘ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR.....	107

14. Komilova Xurshida XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATINING IJTIMOYIY ASPEKTLARI - XALQARO TAJRIBA.....	114
15. Mannanov Erkin SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI.....	123
16. Ubaydullayev Xurshidjon MIGRATSIYA VA TA'LIM MIGRATSIYASINI SOTSIOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH.....	130
17. Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI.....	139
18. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	148
19. Ахмедова Раъно АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИНДИКАТОРОВ БЛАГОСОСТОЯНИЯ.....	157
20. Латипова Нодира, Абдугафурова Чарос СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ СОЗДАНИЯ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ВУЗЕ.....	167

ПРЕДИСЛОВИЕ К НОМЕРУ

Узбекистан, как страна, поставившая целью построение демократического государства, на системной основе проводит выборы различного уровня, которые базируются на нормативно-правовой базе, регулярно совершенствуемой в соответствии с международными избирательными стандартами. Все это направлено на обеспечение участия граждан в управлении государством и обществом, реализацию принципа волеизъявления народа как неотъемлемого атрибута демократического правового государства. Социология как теоретическая наука, анализирующая эмпирические показатели развития общества, также вносит свой достойный вклад в дело осмысления и совершенствования практики проведения выборов с учетом национального опыта демократических выборов.

Так, одним из проявлений политической жизни общества является участие в выборных процессах. Фактически этот акт является важнейшей формой проявления воли народа, от которой зависит характер и особенности общественного и государственного строительства. Социология как инструмент позволяет изучать комплекс проблем, связанных с особенностями подготовки и проведения выборов, а также с поведением населения в выборных компаниях, в том числе электоральных ориентаций социальных общностей и отдельных граждан. Наша наука позволяет на основе эмпирики лучше понять факторы, влияющие на участие в выборах и голосовании, мотивы участия или неучастия в них, изучение участия электората, особенности восприятия ими предвыборных мероприятий, партий и лиц кандидатов, оценка эффективности деятельности СМИ и уровней их влияния на позиции выборов, прогнозирования результатов выборов и т. д.

Это тем более важно, что 27 октября 2024 года в Узбекистане пройдет очередные парламентские выборы. Теперь они пройдут на основе внесенных изменений и дополнений в Избирательный кодекс страны, которые включают порядок проведения выборов в Законодательную палату на основе мажоритарно-пропорциональной (смешанной) системы. В этой системе избирательные округа теперь делятся на одномандатные и единый избирательный округ. 75 депутатов Законодательной палаты будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе (голосование за кандидата), остальные 75 - по пропорциональной, то есть на основе голосов, отданных политическим партиям (по партийным спискам).

Все это и послужило важным мотивом выпуска данного специального выпуска нашего научного журнала. Открывает данный номер моя статья «Использование социологических данных в политической сфере Узбекистана», посвященной проведению социологических исследований и использования их данных в реализации предвыборных технологиях. Так, утверждается, что в условиях низкой политической активности в Узбекистане представляется важным использовать наработки политической социологии в сфере разработки и реализации стратегий в сфере политического управления в части работы с информационными и коммуникационными потоками. Через комплексное использование ПР-средств поддерживается репутация кандидата, формируется паблисити, создается общий план воздействия на сознание человека.

Интерес представляет и статья профессора Национального университета Узбекистана (далее НУУз), д.соц.н. А.Холбекова и заведующего кафедрой Термезского государственного педагогического института, к.п.н., профессора Х.Расулова на тему «Социологическая интерпретация взаимосвязи правовой и политической культуры». В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств.

В журнале опубликована статья доцента Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД), к.п.н. И.Якубова и доцента Академии государственного управления

(АГУ), д.соц.н. Ф.Парманова на тему «Концепции влияния интернет-пространства на общественно-политические процессы». В статье проанализированы некоторые теоретические аспекты и различные подходы исследователей к осмыслению данного феномена, выявлены некоторые их особенности. В статье приводятся данные прикладных исследований, указывающие на растущую роль интернет-коммуникаций в формировании общественного мнения, взглядов общества на те или иные общественные проблемы.

Статья профессора НУУз, д.соц.н. Р.Убайдуллаевой «Право, как профилактика девиантного поведения» посвящена современным тенденциям в развитии права как основного регулятора общественной жизни. По мнению автора, в развитии права можно проследить тенденции гуманизации, дифференциации и прагматизации, позволяющие вести учет многообразия форм, уровней, способов практической деятельности и тех трудностей, которые могут привести к правонарушениям.

Ряд авторов представляют собой ученых, непосредственно задействованных в процессах общественного и государственного управления в нашей стране. Например, руководитель отдела социально-правового медиацентра Олий Мажлис Республики Узбекистан, к.п.н. (PhD) Г.Махаммаджанова «Институты гражданского общества и трансформация социального сознания: взаимозависимость, факторы необходимости (синергетический подход)». В статье рассмотрена деятельность, изменения, обновление, преобразование социальных институтов в обществе. Также Б.Гаибназаров, исследователь АГУ в статье «Факторы необходимости социального управления в отношениях государства и общества (социологический подход)», проанализировал новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, социального управления с социологической точки зрения.

Влияние социальных сетей на выборы рассмотрел к.с.н., соискатель НУУз Х.Бурханов в статье «Проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе и развития национальных сайтов». В данной статье изучен вопрос расширения возможностей информационной системы, развития национальных сайтов Узбекистана в Интернете, современная ситуация и имеющиеся проблемы.

Говоря о выборах можно с большой вероятностью можно говорить о том, что основной тематикой дебатов между политическими партиями страны будет вопрос эффективной реализации идеи «Узбекистан - социальное государство». В этой связи интерес представляет ряд статей, затрагивающих социальный блок развития общества. В частности, заместитель директора Филиала НИЯУ МИФИ в г.Ташкенте, к.с.н. З.Узакова в статье «Феноменологический анализ концепта «социальный капитал» и роль психологических факторов в формировании социального капитала лиц с инвалидностью» дала теоретический анализ преимущественно с позиции междисциплинарного подхода. Результаты исследований автора свидетельствуют о том, что несмотря на разработанные рекомендации по повышению социального капитала людей с инвалидностью, такие как создание доступной среды, инклюзивная и трудовая интеграция, тщательный подбор социального работника, эта проблема все еще остается актуальной и требует более тщательного изучения.

В статье профессора Ферганского государственного университета (ФГУ), д.с.н. (DSc) М.Абдурахмоновой даны теоретико-концептуальные аспекты профессиональной деятельности социальной работы по развитию социальной защиты. В статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

В номере еще одна статья из Ферганы, а именно, доцента ФГУ, к.с.н. (PhD) Н.Имомовой «Совершенствование правовой и нормальной базы в сфере трудовой миграции», затрагивающей такую актуальную для общественного мнения в период выборов тему как государственную политику по регулированию процессов трудовой миграции. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

В завершение отметим, что статьи из данного специального номера нашего журнала найдут своего читателя и будут способствовать лучшему пониманию развития современной социологической мысли в нашей стране. Напомним, что наш журнал открыт для любого автора, который стремится донести свои мысли об общественных процессах, которые представляют актуальный характер.

**С уважением,
Главный редактор Сеитов Азамат**

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Mannanov Erkin,

“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati bosh mutaxassisi,

mustaqil tadqiqotchi

e-mail: erkin2627@gmail.com

SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13338537>

ANNOTATSIYA

Siyosiy madaniyat insoniyat bilan bog‘liq bo‘lgan umummadaniyatning siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan katta bir tarmog‘i sifatida davlat va jamiyat barqarorligini ta‘minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu makolada siyosiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqola mazmunida siyosiy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy taraqqiyotdagi dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan. Siyosiy madaniyatning funksiyalari turli xil yondoshuvlar asosida ilmiy tadqiq etilgan. Uning serqirra hodisa sifatida bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani bajarishi yoritib berilgan. Siyosiy madaniyat ijtimoiy faollikni tarbiyalashning muhim instrumenti sifatida ko‘rib chiqilib, uni o‘zlashtirish natijasida shaxs yoki guruhning ijtimoiy faolligi ham ortib boradi. Maqolada, shuningdek, siyosiy ong va siyosiy madaniyat bir-biriga uzviy holda rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etishi ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy madaniyat, siyosiy madaniyat xususiyati, siyosiy madaniyatning funksiyalari, ijtimoiy faollik, siyosiy madaniyat darajasi.

Маннанов Эркин,

Главный специалист АО «Узбекнефтегаз»,

Независимый исследователь

e-mail: erkin2627@gmail.com

ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА: НЕОБХОДИМОСТЬ И ФУНКЦИИ

АННОТАЦИЯ

Политическая культура как важный фактор обеспечения стабильности государства и общества является значительной ветвью общей культуры, связанной с политикой. С этой точки зрения в данной статье уделено особое внимание изучению сущности понятия политической культуры. В содержании статьи обоснована актуальность и необходимость развития политической культуры в социальном прогрессе. Функции политической культуры научно исследованы на основе различных подходов. Освещено её выполнение нескольких задач одновременно как многогранного явления. Политическая культура рассматривается как важный инструмент воспитания социальной активности, и в результате её усвоения

увеличивается социальная активность личности или группы. В статье также раскрывается важность взаимосвязанного развития политического сознания и политической культуры.

Ключевые слова: политическая культура, характеристики политической культуры, функции политической культуры, социальная активность, уровень политической культуры.

Mannanov Erkin,

Chief Specialist of «Uzbekneftegaz» Joint Stock Company,

Independent researcher

e-mail: erkin2627@gmail.com

POLITICAL CULTURE: NEED AND FUNCTIONS

ABSTRACT

Political culture as an important factor in ensuring the stability of the state and society is a significant branch of general culture associated with politics. From this point of view, this article pays special attention to the study of the essence of the concept of political culture. The content of the article substantiates the relevance and necessity of developing political culture in social progress. The functions of political culture are scientifically studied based on various approaches. Its performance of several tasks simultaneously as a multifaceted phenomenon is highlighted. Political culture is considered as an important tool for educating social activity, and as a result of its assimilation, the social activity of an individual or group increases. The article also reveals the importance of the interrelated development of political consciousness and political culture.

Key words: political culture, characteristics of political culture, functions of political culture, social activity, level of political culture.

KIRISH

Jamiyat manfaatini ko‘zlash, mas’uliyatli bo‘lish siyosiy madaniyatga ega fuqarolarning harakat mezonidir. Chunki mas’uliyat, ongli faoliyat jamiyat, oila va hayotning o‘ziga xos maromini belgilaydi.

Davlat mavjud ekan, uning faoliyatini o‘zida ifoda ettiruvchi siyosat ham amal qiladi. Ayni paytda davlat sifatida fuqarolar manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy institut doimo takomillashib boradi. Davlat hokimiyati va fuqarolar manfaatlarini muvozanatga keltirish, jamiyatning barqaror taraqqiy qilishida siyosiy madaniyatning rivojlanib, zamon va makon nuqtai nazaridan doimo takomillashib borishi amaliy ahamiyatga egadir. Siyosiy madaniyatsiz davlat hokimiyati o‘zining siyosiy faoliyatida fuqarolarning tinchligiga va barqaror taraqqiyotiga erisha olmaydi. Davlat hokimiyati bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarning barqaror rivojlanishida siyosiy madaniyat asosiy omil vazifasini bajarib boradi [1, – B.15].

“Siyosiy madaniyat insoniyat umumiy madaniyatining siyosat bilan bevosita bog‘liq katta sohasidir. U inson siyosiy turmushi hamda jamiyat siyosiy hayotining erishilgan darajasi, sifati va yo‘nalishida, binobarin, siyosiy jarayonlar, odamlarning siyosiy faoliyati, siyosiy institutlar va tuzumlarning faoliyati va rivojlanishi, yetakchi siyosiy qadriyatlar va xulq-atvor namunalari, nazariyalar va mafkuralar, fuqarolarning siyosiy ijtimoiylashishi va ijtimoiy munosabatlarni modernizatsiya qilish aloqalari tizimining xususiyatida o‘z ifodasini topadi” [2, – B.73].

METODOLOGIYA

Fuqarolarning siyosiy madaniyatga ega bo‘lishi ijtimoiy hayotdagi xato va kamchiliklarni anglashda tafakkurni charxlaydi.

Siyosiy madaniyat tushunchasi u yoki bu tarzda qadimgi mutafakkirlar tomonidan ham ma’lum darajada talqin qilingan. Siyosat olamining buyuk donishmandlari bo‘lmish Konfutsiy, Arastu, Aflotun, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Makiavelli va boshqalarni bunga misol qilib keltirish mumkin [3, – B.393].

XVIII asrlarda yashab ijod etgan Sharl Lui Monteskye, Skott Volter, Jan Jak Russo singari mutaxassislar fuqarolarning siyosiy madaniyati yuksalishi bilan bog'liq o'zgarishlargina, davlat va jamiyat farovonligining asosi bo'lishini qayd etganlar [4].

Ayrim ilmiy adabiyotlarda siyosiy madaniyat tushunchasini ilmiy muomalaga XVIII asrda nemis faylasufi I.Gerder olib kirganligi qayd etiladi. Zamonaviy siyosatshunoslikda esa "siyosiy madaniyat" tushunchasini dastlab amerikalik nazariyotchi olim X.Fayer 1956-yilda nashr etilgan "Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi" nomli kitobida tilga olgan. Keyinchalik G.Almond va S.Verba besh mamlakat – AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika va Italiyadagi siyosiy jarayonlarni tahlil qilib, "Fuqarolik madaniyati" (1963-y.) nomli kitob yozadilar [5].

ASOSIY QISM

Siyosiy madaniyat – Vatanga, jamiyatga, millatga, tilga, urf-odatga, tarixga, kelajakka, tabiatga bo'lgan munosabatlarda kishilarning bir-birlariga, oilaga qilgan hatti-harakatlarida, xulqining norma va qonun-qoidalarida namoyon bo'ladi.

Siyosiy madaniyatning eng asosiy xususiyati – uning siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat shaklida namoyon bo'lishi va shaxsning, guruhlarning siyosiy hayotdagi o'rnini belgilashidir [6].

"Siyosiy madaniyatning shakllanishida odamlarning jamiyatdagi siyosiy reallik bilan hamkorlik qilishi va ularning siyosiy jarayonlarga qo'shilishi muhim o'rin tutadi. Masalan, siyosiy jarayonlarda bir qator siyosiy institutlar ishtirok etadi. Jumladan, jamiyat siyosiy tizimi bilan ijtimoiy hayotning turli sohaları hamkorlik qiladi. Ularning har biri o'z navbatida siyosiy madaniyatni shakllantirishda u yoki bu darajada ishtirok etadi hamda mazkur jarayonning yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu o'rinda davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fan va ta'lim tizimining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan siyosiy ta'lim-tarbiya, ma'rifat, ma'naviy va mafkuraviy ishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Bularning barchasi mamlakatda o'ziga xos siyosiy madaniyat modelini shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi" [7, – B.396].

Davlat va jamiyatning rivojlanishi ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish, fuqarolarda kuchli siyosiy tafakkur, milliy mafkuraviy qarashlar sobitligi, siyosiy madaniyatga egalik bilan bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganda, fuqarolarda siyosiy madaniyatning shakllantirilishi amalga oshirilmas ekan – milliy yuksalish, ijtimoiy taraqqiyot to'g'risida fikr yuritish foydasizdir.

Siyosiy madaniyat vazifalari (funksiyalari) siyosiy madaniyat negizini tashkil etib, uni shakllantirish ma'naviy boyliklar, siyosiy bilimlar, ijobiy milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi chuqur fikr-tasavvurlar asosida amalga oshiriladi. Siyosiy madaniyat funksiyalari insonning kundalik turmushida, hayotga bo'lgan munosabatlarida, faoliyatlarida, siyosiy, ijtimoiy axborotlarni qabul qilish va mustaqil munosabat bildirish uchun sog'lom fikrlash asosida rivojlanadi.

Siyosiy madaniyat funksiyalari insonlar xulq-atvori hamda yurish-turishlariga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirida amal qiladi.

Siyosiy madaniyatning vazifalarini aniqlash uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini ko'rsatish demakdir. Shunday qilib, siyosiy madaniyat serqirra hodisa bo'lib, u bir vaqtning o'zida bir necha ijtimoiy vazifani bajaradi. Ta'kidlash joizki, siyosiy madaniyatning asosiy vazifasi shaxsning siyosiy qiyofasini, zarur siyosiy xislatlarini shakllantirish hisoblanadi.

Siyosiy madaniyat har bir insonda o'z huquq va majburiyatlarining birligini, ularni har kuni ro'yobga chiqarishga intilishini tarbiyalashi lozim. Fuqarolik his-tuyg'usini tarbiyalash siyosiy madaniyatning bosh vazifasidir. Shaxsning fuqarolik his-tuyg'usi uning faol hayotiy pozitsiyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, "hozirgi zamon siyosatshunosligida siyosiy madaniyatning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatiladi:

- qadriyat va mo'ljallarga doir funksiyalar (siyosiy ifodalar ma'nosini talqin qiladi);
- normativ xulq-atvorga oid funksiyalar (maqbul siyosiy xulq-atvor "doirasi"ni chizib beradi);
- birlashtiruvchi funksiya (ijtimoiy jamoani jipslashtiradi);
- aloqalarni ta'minlash funksiyasi (ramzlar va stereotiplar asosida subyektlar va institutlarning o'zaro aloqasini amalga oshiradi);
- tarbiyaviy funksiya (siyosiy tizimga muvofiq siyosiy xulq-atvor tipini shakllantiradi).

Umumiy va amaliy siyosatshunoslikni o'rganuvchi olimlar jamiyatda siyosiy madaniyat bajaradigan besh funksiyani e'tirof etadilar:

1) normativ funksiya: siyosiy madaniyat individlar, guruhlar va jamoaga ma'lum normalar, siyosiy tafakkur va xulq-atvor standartlarini boshlab beradi, siyosiy qadriyatlar ustuvorligining nisbatini o'rnatadi;

2) tarbiyaviy funksiya: siyosiy madaniyat muayyan "siyosiy shaxs" tipini shakllantiradi;

3) safarbar etish funksiyasi: siyosiy madaniyat fuqarolarni ma'lum siyosiy va ijtimoiy vazifalarni hal qilishga uyushtiradi va yo'naltiradi;

4) birlashtirish funksiyasi: siyosiy madaniyat fuqarolar mazkur jamoaga xos siyosiy normalar va qadriyatlarni o'zlashtirishini ta'minlaydi hamda bu yo'l bilan ularni jipslashtiradi, uyushtiradi;

5) reproduktiv (takroran yaratish) funksiya: siyosiy madaniyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning mazkur tizimini qayta tuzishga yordam beradi.

"Siyosiy madaniyat – ijtimoiy faollikni shakllantirish va tarbiyalashning muhim vositasidir. Siyosiy madaniyatni o'zlashtirish darajasiga qarab shaxs yoki guruhning ijtimoiy faolligi ham ortib boradi.

Shaxsning (guruhning) ijtimoiy faolligi ijtimoiy faoliyat jarayonida va uning natijasida shaxsni (guruhni) qurshagan tabiiy va ijtimoiy muhitda amalga oshiriluvchi o'zgarishlarning, shuningdek, mazkur shaxsning (guruhning) o'zidagi o'zgarishlarning xususiyatini (ijtimoiy ahamiyatini) va ko'lamini ifodalovchi mezon hisoblanadi. Umuman olganda, bu ta'rifga qo'shilish mumkin. Ammo uni qo'llashda ijtimoiy faollik mezoni nima va u nimaga bog'liq, qolaversa, shaxsning ijtimoiy faolligini uning real faoliyati ko'lami bilan o'lchash mumkinku, degan tabiiy savollar tug'iladi. Ijtimoiy faolligi bir xil bo'lgan ikki odamni tasavvur qilaylik. Ularning biri tanqid qabul qilinmaydigan, boshqaruvda fuqarolarning ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan jamoada, ikkinchisi esa – o'ta qulay shart-sharoitlar yaratilgan jamoada mehnat qiladi. Ular ijtimoiy faolligining mezoni o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra har xil bo'ladi.

Shuning uchun ham ijtimoiy faollikni "faoliyat mezoni"ga tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi. Nazarimizda, ijtimoiy faollik ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bo'lib, u amaliy faoliyat jarayonida voqelikka aylanadi. Zero faollik ma'lum ijtimoiy harakatlarni amalga oshirish imkoniyati sifatida faoliyatning o'zi bilan tenglashtiriladi" [8, – B.55].

Siyosiy madaniyatning yuqorida sanab o'tilgan funksiyalaridan tashqari yana mafkuraviy funksiyasi ham mavjud. Siyosiy madaniyatning mafkuraviy funksiyasi yagona maqsadga ega. U odamlarda o'zini-o'zi anglash, ijtimoiy hayot hodisalariga yondashishda qat'iy pozitsiyaga ega bo'lish ko'nikmasini tarbiyalaydi.

Siyosiy madaniyatning navbatdagi funksiyasi – tartibga solish funksiyasidir. Uning ikkita vazifasi mavjud bo'lib, bular:

1) o'z guruhi, jamoasi va umuman, jamiyat ishlarini boshqarishga fuqarolarni jalb etish;

2) shaxsning kundalik xulq-atvorini tartibga solish.

Albatta, mazkur funksiyaning birinchi jihati tushunarli ekanligi bois, quyida uning ikkinchi jihati haqida fikr yuritish joiz bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, shaxsning kundalik xulq-atvorini tartibga solishda uning individual xususiyatlari e'tiborga olinadi va tartibga solish ma'muriy boshqaruvga aylanib ketmaydi. Inson xulq-atvorini tartibga solish o'z xulq-atvorini o'zi tartibga solishga asoslanishi lozim.

Jamiyatning har bir ongli fuqarosi siyosiy madaniyatga oid o'zini o'zi tartibga solish imkoniyati mavjudligini ko'rib, uni o'zlashtirishga harakat qiladi. U o'zining ijtimoiy hayot sohasidagi hatti-harakatini ularning siyosiy oqibatlari nuqtai nazaridan oldindan o'ylab ko'radi va bu xulq-atvor tarzi siyosiy madaniyat normalariga qay darajada muvofiqligini mustaqil ongli ravishda hal qiladi. Siyosiy jihatdan madaniyatli odam aynan shunday yondashuvi bilan ajralib turadi. Bu ma'noda, siyosiy madaniyat o'zining tartibga solish funksiyasini faqat jamoa, guruh miqyosida emas, balki shaxs darajasida ham bajaradi.

Nihoyat, siyosiy madaniyat ijtimoiy (avvalambor, siyosiy) tajribani o'tkazish funksiyasiga ega. Bu funksiyaga, birinchidan, o'tgan avlodlar to'plagan siyosiy tajribani yangi, hayotga kirib

kelayotgan avlodlarga o'tkazish, ikkinchidan esa, boshqa mamlakatlar va xalqlar bilan siyosiy tajribani o'rtoqlashish kiradi.

Siyosiy madaniyat jamiyatning siyosiy hayotida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Siyosiy madaniyati bo'lmagan yoki past darajada bo'lgan jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlash, siyosiy tizimning normal ishlashini va shaxsning siyosatda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash mushkul.

Umuman olganda, hozirgi zamon siyosatshunosligida siyosiy madaniyatning quyidagi funksiyalari farqlanadi:

1) aynan moslashtirish (identifikatsiya) funksiyasi – siyosiy madaniyat shaxsda jamiyatga, mamlakatga yoki ma'lum ijtimoiy guruhga mansublik hissini mustahkamlaydi, siyosat institutlari va mexanizmlari orqali shaxsiy, guruh va jamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish vosita va usullarini aniqlashga yordam beradi;

2) yo'naltirish funksiyasi – shaxsning siyosiy hodisalarni ongli idrok etishini ta'minlaydi, unga siyosat sohasidagi o'z o'rnini va imkoniyatlarini yaxshiroq tushunish, o'z huquq va manfaatlarini muayyan siyosiy tizim doirasida muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishda yordam beradi;

3) moslashtirish funksiyasi – shaxsning o'zgaruvchi siyosiy vaziyatga, yangi imkoniyatlarga, siyosiy faoliyatdagi u yoki bu cheklashlarga moslashuviga ko'maklashadi;

4) ijtimoiylashtirish funksiyasi – shaxs jamiyatning siyosiy madaniyatini o'zlashtirish jarayonida siyosatdagi o'z manfaatlarini himoya qilish imkonini beruvchi ko'nikmalar va vositalarga ega bo'ladi;

5) siyosiy hayotni barqarorlashtirish funksiyasi – aynan siyosiy madaniyat jamiyat a'zolarida mavjud siyosiy tizim va uning institutlariga nisbatan xayrixoh munosabat shakllanishiga yordam beradi;

6) birlashtirish funksiyasi – jamiyatning turli tabaqalari va guruhlarini umumiy g'oyalari, tasavvurlar va qadriyatlar asosida birlashtirish orqali davlat va jamiyatning mushtarakligini mustahkamlashga ko'maklashadi;

7) aloqalarni ta'minlash funksiyasi – hokimiyat institutlari va boshqa siyosat subyektlari (siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy va diniy harakatlar, ijtimoiy tabaqa va guruhlar) umumiy qadriyatlar va siyosatdagi "o'yin qoidalari" asosida, shuningdek umumiy tushunchalar va ramzlardan foydalanish hisobiga o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi;

8) jamiyatning siyosiy tizimi va siyosiy hayotini yangilash funksiyasi – siyosiy madaniyat doirasida shakllangan va qaror topgan jamiyatning siyosiy tuzilishini o'zgartirish haqidagi yangi g'oyalari yangi siyosiy institutlar, jarayonlar va mexanizmlarning yaratilishiga olib keladi (masalan, monarxning vakolatlarini konstitutsiyaviy cheklash, hokimiyatning taqsimlanishi, umumiy saylov huquqi g'oyalari va h.k.);

9) siyosiy tuzilishda va siyosiy hayotda vorisiylikni ta'minlash funksiyasi - siyosiy madaniyat bunga yangi g'oyalarni avvalgi siyosiy tajriba bilan bog'lash orqali erishadi [9, – B.58-59].

"Ko'pchilik nazariyotchilari siyosiy madaniyatning uchta darajasi borligi haqidagi fikrni yoqlaydilar. Bular:

a) tafakkur qilish, anglash darajasi;

b) fuqarolik darajasi;

v) siyosiy daraja. Mazkur daraja o'zidan keyingilari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik darajasi – bu darajada siyosiy madaniyatning asosiy o'zagi shakllanadi. Ushbu daraja odamlarning siyosiy hokimiyatga munosabatini belgilab beradi. Inson siyosat dunyosi bilan duch kelib, muqarrar ravishda unga, jamiyat siyosiy tizimiga nisbatan, siyosiy hokimiyat imkoniyatlari va vakolatlariga nisbatan o'z munosabatlarini shakllantiradi. Siyosiy hokimiyatning o'rnini, rolini anglash natijasida, o'zining fuqarolik burchlari va majburiyatlarini ichki tuyg'usi bilan his qiladi.

Siyosiy daraja – bu darajada insonning siyosat hodisasiga munosabatlari shakllangan qadriyat darajasiga yeta boshlaydi. Inson o'zini siyosatning subyekti sifatida qabul qila boshlaydi. Bu darajada inson va siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning barcha jihatlarini oydinlashadi. Inson hayotida siyosatning o'rnini aniq tasavvur qilingan bo'ladi" [10, – B.396].

Darhaqiqat, siyosiy madaniyat sohibi jamiyatda sogʻlom ijtimoiy faoliyat yuritadigan faol fuqaroga aylanadi. Siyosiy madaniyat fuqarolarda mamlakat siyosiy hayotida ijtimoiy faol boʻlishlari uchun zamin yaratadi, jamiyatda sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga nisbatan begonalashuvning rivojlanish xavfini yoʻqotadi, mamlakat hududida sodir boʻlayotgan ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-mafkuraviy jarayonlarga dahldorlik hissini shakllantiradi. Bu esa, dunyoda sodir boʻlayotgan voqea-hodisalardan saboqlar chiqarish, davlatimizga tashlanayotgan har qanday ijobiy va salbiy nigohlarni ilgʻash uchun barcha bilim va koʻnikmalarni umumlashtiradi.

“Albatta, siyosiy madaniyat siyosiy ong orqali yuzaga keladi va rivojlanadi. Agar siyosiy ong shakllanmagan boʻlsa, siyosiy madaniyat ham shakllanmaydi” [11, – B.86]. Siyosiy madaniyat shakllanishi siyosiy ong rivojlanishidan orqada qolsa, siyosiy joʻshqinlik va siyosiy faollikning salbiy tus olishi kuzatiladi. Bu esa siyosiy ziddiyatlar xavfining kuchayishiga sabab boʻladi. Ushbu holat gʻaraz niyatdagi tashqi kuchlarning siyosiy maqsadlarini roʻyobga chiqarish uchun ayni muddao holat hisoblanadi. Ushbu xatarlarni oldini olish uchun ham, jamiyatda siyosiy madaniyatni yuksaltirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Fuqarolarda siyosiy ong, siyosiy madaniyatni shakllantirishning zaruriyati shundaki, u insonlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqchilik, adolat, vijdon pokligi, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy faollik kabi xalq, millat, vatan taqdiri, kelajak hayotini belgilashga qodir boʻlgan muhim axloqiy fazilatlarining qaror topishiga koʻmak beradi. Insonni oʻz davlati va jamiyatidagi ustuvor munosabatlar, qadriyatlar, qonun-qoidalar, olib borilayotgan siyosatning mazmun-mohiyatini anglagan holda hurmat qilishga, ularga oʻz huquq va burchlarini idrok etgan holda oqilona boʻysunishga undaydi. Bu qonun-qoidalarni individual xarakter xususiyatlariga, faoliyat meʼyorlariga singdiradi. Bunda inson oʻzi yashayotgan mamlakat qonun-qoidalari, ustuvor qadriyatlarini hurmat qilgan holda uni shaxsiy turmush tarziga aylantirib yuboradi, bu uning xarakteriga singib ketadi va u ushbu meʼyorlarni cheksiz hurmat qilgan holda ularga ixtiyoriy ravishda amal qilishni oʻzining insoniy va fuqarolik burchi deb biladi.

Shu boisdan, siyosiy madaniyatni bugungi kundagi kuchli informatsion hayotda ziyraklik va sogʻlom mustaqil fikrning asoslaridan biri boʻlib xizmat qiluvchi muhim omil, deyish mumkin. Zotan, hozirgi gʻoyalar va siyosiy manfaatlar toʻqnashuvi avj olgan davrda, har bir fuqaroning oʻz huquq va burchlarini teran tushunishi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda siyosiy madaniyatga asoslangan soʻgʻlom mustaqil fikr bilan ishtirok eta olishi mamlakatning barqaror rivoji va jamiyat farovonligini taʼminlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Otamuratov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2015. – B.19.
2. Odilqoriyev X.T., Gʻoyibnazarov Sh.Gʻ. Siyosiy madaniyat: nazariy-qiyosiy tadqiqot. – Toshkent: OʻzR IIV akademiyasi, 2004. – 73 b.
3. Parmanov S. Siyosiy madaniyatning shakllanishi bilan bogʻliq tahlillar. FarDU ilmiy xabarlar jurnali. 2023-yil, № 1. – B.393.
4. Yaxshibayev Sh. Siyosiy madaniyat va uning konseptual-nazariy muammolari. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariya va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari toʻplami. Elektron manba: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7837383>.
5. Saidova S. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi – mamlakatda tolerantlikni mustahkamlovchi muhim omil. Demokratlashtirish va inson huquqlari jurnali.-T., 2022-yil, 2-son. – B.48.
6. Yaxshibayev Sh.Q. Siyosiy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umumbashariy masalalari. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” elektron jurnali. Elektron manba: <https://oriens.uz/media /journalarticles/44>.

7. Parmanov S. Siyosiy madaniyatning shakllanishi bilan bogʻliq tahlillar. FarDU ilmiy xabarlar jurnali. 2023-yil, No. 1. – B.393.
8. Odilqoriyev X.T., Gʻoyibnazarov Sh.Gʻ. Siyosiy madaniyat: nazariy-qiyosiy tadqiqot. – Toshkent: OʻzR IIV akademiyasi, 2004. – B.55.
9. Odilqoriyev X.T., Gʻoyibnazarov Sh.Gʻ. Siyosiy madaniyat: nazariy-qiyosiy tadqiqot. – Toshkent: OʻzR IIV akademiyasi, 2004. – B.58-59.
10. Parmanov S. Siyosiy madaniyatning shakllanishi bilan bogʻliq tahlillar. FarDU ilmiy xabarlar jurnali. 2023-yil, No. 1. – B.396.
11. Otamuratov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2015. – B.86.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000